UO‘K 371.31

ARALASH TA’LIM JARAYONIDA RAG‘BATLANTIRISH METODINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI

Z.E. Azimova, M.X. Jumakulova

Hozirda o‘qitish sifatini oshirish, zamon talablariga mos o‘quv jarayonini tashkil etish va takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega. Maqolada aralash ta’lim jarayonida rag‘batlantirish metodini takomillashtirishning pedagogik tizimi haqida so‘z yuritilgan. Bu murakkab va ko‘p qirrali pedagogik tizim bo‘lib, aralash o‘quv muhitida turli rag‘batlantirish strategiyalarini birlashtirish orqali o‘quvchilarning o‘quv motivini oshirishga qaratilgandir.

Kalit so‘zlar: *aralash ta’lim, takomillashtirish, pedagogik tizim, yondashuv, muhit, ta’lim, rag‘batlantirish, o‘qitish, o‘rgatish, o‘quv motivi.*

В настоящее время актуальным является повышение качества образования, организация и совершенствование образовательного процесса в соответствии с требованиями времени. В статье говорится о педагогической системе совершенствования метода поощрения в процессе смешанного обучения. Это представляет собой сложную и многогранную педагогическую систему, направленную на повышение мотивации учащихся к обучению путем объединения различных мотивационных стратегий в среде смешанного обучения.

Ключевые слова: *смешанное обучение, совершенствование, педагогическая система, подход, среда, образование, поощрение, преподавание, обучение, учебный мотив.*

Kirish

Respublikamizda boshlang‘ich ta’lim uchun o‘quv dasturlar va o‘quv-metodik majmualar o‘quvchining ongi, tafakkurini rivojlantirishga hamda uning shaxsiy hayotdagi taraqqiyotiga keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgandir. 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda [1] ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta’lim ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-mayda qabul qilingan “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi [2] farmonida yangi o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv-metodik majmualarda o‘quvchilarni jamoada ishlash, mustaqil kichik tadqiqotlarni bajarish, erkin va tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga to‘g‘ri yondashish barobarida yechimini topa olishga o‘rgatish masalalariga alohida e’tibor berish zarurligi qayd etilgan. Ushbu jihatlarni shakllantirishda, birinchi navbatda, o‘quvchilarda bilim olishga ishtiyoqni oshirish, ularning tafakkurini kengaytirish va ma’naviy dunyosini boyitish darkor. O‘quvchining muvaffaqiyatlarini rag‘batlantirish orqali ularning o‘quv motivi, kognitiv faoliyat, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshira olamiz. Pedagogika tarixida ko‘plab mualliflar tomonidan rag‘batlantirish o‘quv jarayonida o‘quvchilarning bilim sifati, fanlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishi va faolligini oshirishning yetakchi vositalaridan biri ekanligi e’tirof etilgan.

Bugungi ilm-fan taraqqiy etgan zamonda har bir soha axborot texnologiyalari bilan uzviy ravishda bog‘liqdir. Hayotimizga virtual olam jadallik bilan kirib kelmoqda, bu olam faol ishtirokchilarining katta qismi yoshlardir. Aralash ta’lim jarayoni virtual olamning bir necha afzalliklarini o‘z ichiga olib, o‘quvchilarning ta’lim olishiga qulayliklar yaratadi. Axborot texnologiyasi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, mohirona va samarali foydalana olish o‘qituvchilarning o‘quv jarayonini yuqori saviyada tashkil etishiga, o‘quvchilar bilimining oshishiga imkon beradi. Kompyuterlar va axborot texnologiyalari sababli barcha sohalarda, xususan, o‘quv jarayonlarida ham texnik imkoniyatlar ortib bormoqda. Aralash ta’lim jarayoni o‘quvchilarga ko‘plab afzalliklar beradi. Vaqt va joy tanlamasligi, hamkorlikdagi faoliyat, ma’lumotlar bazasi hajmining yuqoriligi kabilar shular jumlasidandir. Aralash ta’lim jarayonida o‘quvchilar ta’limiy va tarbiyaviy o‘yinlar shaklida berilgan topshiriqlarni bajarish orqali rag‘batlarni olishlari mumkin. Bu, o‘z navbatida, rag‘batlantirish metodidan foydalanish orqali o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Material va usullar

Ta’lim jarayonida an’anaviy metodlardan kamroq foydalanish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hozirgi ta’lim jarayonining dolzarb masalalaridan biridir. Mazkur yo‘lda o‘qituvchidan sabr-toqat, mas’uliyat talab qilinadi [3. B. 56–67].

Ma’lumki, ta’lim-tarbiyada o‘qitish, o‘rgatish, o‘zlashtirish kabi jarayonlarning birini boshqasidan ayro tasavvur qilish mumkin emas. Ular bir butunlikda biri ikkinchisini taqozo etadi, o‘zaro bir-birini boyitadi. Shu ma’noda o‘qitish – bu o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarni berish jarayoni, o‘rganish – bu bilim va ko‘nikmalarni shaxsning o‘z tashabbusi bilan egallash jarayoni, o‘rgatish esa ko‘nikmalarni rivojlantirishning o‘ziga xos jarayonlaridir.

O‘qitish va o‘rgatish hamma o‘quvchi, o‘qituvchilardan doimo izlanishda bo‘lishlarini taqozo etadi. Ta’lim jarayoni axborot texnologiyalari yordamida yakka tarzda va guruhlar faoliyatini tashkil etgan holda amalga oshishi mumkin. O‘qitishdagi turli yondashuvlar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi [4. B. 86–93].

Xorij va yurtimiz olimlarining tadqiqotlarida samarali metodlardan atroflicha foydalanish va ularni keng jamoatchilikka taqdim qilish harakatlarini ko‘rishimiz mumkin. Quyida ularning ishlaridan ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

L.G.Babaxodjayeva ta’lim jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan bir necha aralash ta’lim modellarini tavsiya qilgan. Uning fikriga ko‘ra, aralash ta’lim “an’anaviy kunduzgi, masofaviy va mustaqil ta’limni birlashtiruvchi o‘qitish tizimi bo‘lib, u o‘qituvchi, ta’lim oluvchilar va axborotning interfaol manbalarining o‘zaro ta’sirlanishini qamrab oladi. Doimo o‘zaro aloqada bo‘lgan va bir butunlikni tashkil etgan o‘quv jarayoniga xos barcha komponentlar (o‘qitishning maqsadi, mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari, vositalari) aralash ta’limda aks etadi” [5. B. 98].

A.E.Begbo‘tayev aralash ta’limga bir necha metodlarni ham amaliyotda qo‘llab, aralash ta’lim jarayonidagi turli modellarni qayta ishlash va ularni dars jarayonida tajriba asosida joriy etish bilan birga, aralash ta’limning “Flipped classroom” modelini taklif etadi. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash bilan yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, ta’lim berishning jadalligi va sifatini oshirish imkoniyatlari haqida so‘z yuritadi. Tajriba-sinov darslaridan olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, darslar yakunida o‘quvchilarni rag‘batlantirish katta natijalar berganligi yaqqol namoyon bo‘ldi [6. B. 45].

O‘quvchilarni aralash ta’lim jarayoniga jalb etish va bu yo‘nalishda bir necha zanjirli tarmoqlarni birlashtirish metodini taklif qilgan tadqiqotchi D.M.Saifurov qo‘llagan rag‘batlantirish usuli ham sezilarli darajada natijalar ko‘rsatdi [7. B. 89].

Asosiy maqsadimiz aralash ta’lim jarayonida rag‘batlantirish metodini takomillashtirishning pedagogik tizimini yoritishdan iborat bo‘lganligi sababli nazariy xulosalar qilish uchun manbalarni qiyosiy tahlil qildik. M.X.Allambergenova o‘z izlanishlari natijasida bu borada ahamiyatli xulosalarga kelgan. Uningcha, rag‘batlantirish o‘quvchilarda o‘z ustida ishlash, doimo izlanish istagi, ijodkorlikni rivojlantirish bilan birga, maqsadlarini aniq qo‘ygan holda, ularni shu yo‘lda vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishga undaydi [8. B. 107].

M.Y.Eshnazarova ham dars mashg‘ulotlari davomida aralash ta’lim jarayonida rag‘batlantirish metodini takomillashtirishning pedagogik tizimini joriy etish borasida izlanishlar olib borgan. Bu turdagi o‘rganish o‘quvchiga nimani va qachon o‘rganish haqida o‘z fikrini bildirishga imkon beradi. Aralash ta’limda o‘quvchi o‘z ta’limi ustidan ma’lum bir nazoratni saqlab qoladi. Bizga ma’lumki, an’anaviy ta’lim jarayonida barcha o‘quvchilarni sinfxonasiga jamlab, bir vaqtning o‘zida va bir joyda bir xil topshiriqlar beriladi. Aralash ta’lim jarayoni esa o‘quvchining bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, vaqt va joy erkinligini ta’minlaydi. O‘quvchilarni aralash ta’lim jarayonida rag‘batlantirish ularning bilish faolligini oshiradi [9. B. 112]. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, pandemiya boshlangan vaqtda deyarli barcha ta’lim maskanlari ta’limni gibrid asosida olib borishni yo‘lga qo‘ydilar va shu bilan aralash ta’lim jarayonining dastlabki holati o‘tkazildi. Mazkur ta’lim jarayonida ham o‘quvchilar dars mashg‘ulotlarida faol qatnasha boshlaganlar. O‘qituvchilar har bir mashg‘ulotda o‘quvchilarni rag‘batlantirish usullaridan, albatta, unumli foydalanganlar [10. B. 4–7].

Natija va muhokama

Aralash ta’lim jarayonida rag‘batlantirish usulini takomillashtirishning pedagogik tizimi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, u aralash o‘quv muhitida turli rag‘batlantirish strategiyalarini birlashtirish orqali o‘quvchilarning bilimlarini oshirishga qaratilgan. Aralash ta’lim an’anaviy, yuzma-yuz o‘qitishni onlayn ta’lim komponentlari bilan birlashtirib, ta’limga moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, rag‘batlantirish usuli o‘quvchilarning faolligini, ishtirokini va o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatini rag‘batlan-

tirish uchun o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan turli usullar, pedagogik ta’sir, mukofotlarni anglatadi. Ushbu rag‘batlar ko‘p shakllarda bo‘lishi mumkin. Maqtov, mukofotlar, tan olish, maqtov yorliqlari, o‘g‘il bola va qiz bolalar uchun maxsus medallar, o‘yinlashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan va rag‘bat kartochkalari shular jumlasidandir. Aralash ta’limda rag‘batlantirish usulini takomillashtirishning pedagogik tizimi uning samaradorligiga hissa qo‘shadigan bir nechta asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. *Shaxsga yo‘naltirilganlik va tabaqalashtirilganlik*. Aralash ta’lim muhitida o‘quvchilarning turli ehtiyojlari, o‘rganish uslublari va qiziqishlarini tan olish, ta’lim jarayonida yuqoridagi jihatlarni inobatga olgan holda o‘qituvchi tomonidan tashkillashtirilishi lozim. Pedagogik tizim o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun shaxsga yo‘naltirilgan va tabaqalashtirilgan rag‘batlantirishni o‘z ichiga olishi kerak. Ana shundagina har bir o‘quvchi o‘quv jarayonidan motivatsiya oladi va o‘zida qo‘llab-quvvatlanganlik tuyg‘usini his qiladi. Tabiiyki, bu o‘quvchining o‘zlashtirish natijasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. *Gamifikatsiya va interaktiv ta’lim*. Gamifikatsiya o‘quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshirish uchun o‘quv jarayonida mukofotlar, ballar, nishonlar va darajalar kabi o‘yinga o‘xshash elementlarni birlashtirishni o‘z ichiga oladi. Aralash ta’lim sharoitida o‘qituvchilar ta’limni yanada interaktiv va qiziqarli qilish uchun o‘yinli rag‘batlardan foydalanishi mumkin, bu bilan o‘quvchilar ishtiroki va ta’lim natijalarining oshishiga erishiladi.

3. *Real vaqtdagi fikr-mulohaza va tanib olish*. O‘quvchilar o‘z vaqtida aniq fikr-mulohazalarini taqdim eta olishi pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismidir. Aralash ta’lim muhitida o‘qituvchilar o‘quvchilarga real vaqt rejimida fikr-mulohazalarni taqdim etish, shuningdek, ularning yutuqlari va taraqqiyotini tan olish uchun onlayn platformalar va vositalardan foydalanishlari mumkin. Bu ijobiy xulq-atvor va ish faoliyatini kuchaytirishga yordam beradi, doimiy harakatlarni takomillashtirish uchun rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi.

4. *Avtonomiya va o‘z-o‘zini boshqarish*. O‘quvchilarga avtonomiya va o‘z-o‘zini boshqarish orqali o‘z ta’limini egallashga imkon berish aralash ta’lim kontekstida kuchli rag‘bat bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar o‘quvchilarga tanlov qilish, maqsadlar qo‘yish va o‘quv dasturi doirasida qiziqish sohalariga intilish imkonini beruvchi rag‘batlarni ishlab chiqishlari mumkin, bu ichki motivatsiya va ularning ta’lim natijalari uchun mas’uliyat hissini uyg‘otadi.

5. *Foydalanish imkoniyati va moslashuvchanlik*. Pedagogik tizim rag‘batlantirishning barcha o‘quvchilar uchun, ularning ta’limga bo‘lgan qiziqishlari, qobiliyatlari va sharoitlaridan qat’i nazar, ochiq va teng bo‘lishini ta’minlashi kerak. Bu rag‘batlantirishning moslashuvchan variantlarini taqdim etishni, turli xil ta’lim ehtiyojlarini qondirishni va ishtirok etishdagi to‘siqlarni olib tashlashni o‘z ichiga olishi mumkin.

6. *Uzluksiz baholash va tuzatish*. Har qanday pedagogik yondashuv singari aralash ta’limda rag‘batlantirishni takomillashtirish tizimi uning samaradorligini doimiy ravishda baholashni o‘z ichiga olishi kerak.


7. O‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik va tengdoshlarning o‘zaro ta’sirini rag‘batlantirish aralash ta’limda samarali rag‘batlantirish strategiyasi bo‘lishi mumkin. Topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilarning jamoada ishlashi, hamkorlikda o‘zaro fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, amaliy topshiriqlarni bajarish, muammolarni birgalikda hal etishni o‘z ichiga oladi.

Umumta’lim maktabi aralash ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf ona tili fanini o‘qitishda rag‘batlantirish metodidan foydalanish, birinchidan, o‘quv dasturining to‘liq bajarilishini ta’minlashga, ikkinchidan, o‘quvchilarning fanga oid nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini, lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga imkon berishi pedagogik tajriba-sinov o‘tkazish orqali isbotlandi.


Tadqiqot davomida Andijon shahar 6-umumta’lim maktabi 4-sinfida tahsil oluvchi o‘quvchilarga aralash ta’lim jarayonida ona tili fanini o‘qitish, rag‘batlar qo‘llash orqali lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish, bilim samaradorligini oshirish jarayoni ko‘rib chiqildi. Tadqiqotda 4-“D” sinf o‘quvchilari (34 nafar) uchun “Ona tili” fanidan tashkil etilgan aralash ta’lim jarayonida rag‘batlantirish metodining qo‘llanishi, bilimlarni baholash usullari va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi samaradorligi bo‘yicha natijalar qayd etildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida pedagog tomonidan an’anaviy ta’lim shaklida dars tashkil etildi. Bir chorak davom etgan an’anaviy darslardan so‘ng o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nazorat testi, topshiriqlar orqali aniqlandi. Tadqiqot davomida kuzatishlarimizga ko‘ra, sinfdagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi 26% yuqori, 56% o‘rta, 18% qoniqarli ekanligi aniqlandi [1-rasm]. Tadqiqotning keyingi bosqichida o‘quv jarayoni aralash ta’limning moslashuvchan modelidan foydalanib, telegram ilovasi orqali tashkil etildi. Pedagog tomonidan o‘quvchilarga aralash ta’lim jarayoni haqida ma’lumot berilib, ushbu o‘quv jarayonida ishtirok etish yo‘riqnomasi bilan tanishtirildi. O‘quvchilarga monitorda sayyoramizdagi mavjud tog‘ va cho‘qqilar haqidagi video ko‘rsatilib, ularda cho‘qqilar haqidagi tasavvurlar paydo qilindi. Mazkur tasavvurlar zaminida yangi ta’limiy o‘yin tashkil etilib, o‘quvchilarda cho‘qqini zabt etish istagi uyg‘otildi. Ushbu istakka

bilim evaziga to‘plangan rag‘batlar orqali yetishish mumkinligi tushuntirildi. Ta’limiy o‘yin “Everest” deb nomlanib, o‘quvchilar to‘plangan rag‘batlarning miqdoriga qarab yuqorilab boradi va marra (cho‘qqi) ga chiqadilar. Yangi mavzular chorak davomida sinfdars usulida turli metodlarni qo‘llash orqali o‘tib borildi. Telegram ilovasi orqali shakllantirilgan onlayn guruhga yangi mavzuning video va elektron shakllari joylashtirilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu ma’lumotlar bilan tanishgandan so‘ng o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarib boradilar. O‘quvchilarning o‘zlashtirish natijalariga ko‘ra har bir mavzu uchun 3 xil qiyinlik darajadagi turli xil topshiriqlar tuzildi. Topshiriqlar quiz test, matnni kerakli so‘zlar bilan to‘ldirish, lug‘at ustida ishlash, xatoni topish, xatosiz yozish kabilardan iboratdir. Topshiriqlar o‘quvchining o‘zlashtirish darajasiga qarab berib borildi. Bu o‘quvchi shaxsini shakllantirishga yo‘naltirilgan yondashuvni joriy etishga yordam beradi, topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchida o‘ziga nisbatan ishonchni, motivatsiyani oshiradi, ta’limda shaxsiy natijalarga erishishni kafolatlaydi. Bajarilgan topshiriqlar asosida o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlari mustahkamlanib bordi. O‘quvchining o‘zlashtirish natijalariga ko‘ra topshiriqning qiyinlik darajasi o‘zgarib turdi. O‘quvchilar har bir topshiriqni bajargach ma’lum bir qiymatdagi rag‘batga ega bo‘ldilar. To‘plangan rag‘batlar keyingi bosqichga o‘tish uchun zamin bo‘lib, o‘quvchini marra (cho‘qqi) ga yaqinlashtirdi. Topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchi mavzuga oid ma’lumotlardan mustaqil foydalanib, o‘z ustida ishlashi uchun imkoniyat yaratildi. Chorak yakunida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi samaradorligi 3 turdagi topshiriq asosida aniqlandi [2-rasm].



1-rasm.



2-rasm.

Tajriba natijalari aralash ta’limda foydalanilgan rag‘batlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga ijobiy ta’sir qilganini, ko‘rsatkichlar sezilarli o‘sganini ko‘rsatdi. Aralash ta’lim ishtirokchilariga auditoriya muhitida bajarish imkoni bo‘lmagan topshiriq turlarini taklif qilish orqali ularda mustaqil ishlash ko‘nikmalari shakllantirildi. O‘quvchilarning idrok, sezgi, xotira kabi sifatlarini hisobga olib berilgan topshiriqlar ularga rag‘bat bo‘lib xizmat qildi. Odatda o‘quvchi topshiriqlarni bajarishda qiyinchilikka duch kelar ekan, unda o‘ziga bo‘lgan ishonch, o‘quv motivining pasayishi kuzatilishi mumkin. Aytish mumkinki, aralash ta’lim jarayoni ta’limni individuallashtirishga va uni o‘quvchining bilish ehtiyojlariga moslashtirish orqali rag‘batlantirishga yordam berdi.

Ma’lumki, o‘qiganlarimizning 10%i, eshitganimizning 20%i, o‘rganganlarimizning 30%i, ko‘rgan va eshitganlarimizning 50%i, boshqalar bilan muhokamadagi ma’lumotlarning 70%i hamda o‘zimiz o‘tkazgan tajribalarimizning 80%ini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega ekanmiz. Rag‘batlantirish metodi orqali o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish va topshiriqlarni bajarish ko‘nikmalari shakllantirildi. Rag‘batlantirish metodidan foydalanish o‘qitish jarayoniga samarali ta’sir ko‘rsatib, o‘quvchilarning o‘quv jarayonida faol bo‘lishini ta’minladi.

Xulosalar

Rag‘batlantirish usulini takomillashtirishning pedagogik tizimi aralash ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini, o‘quvchilarning xilma-xil ehtiyojlarini, ta’lim texnologiyasi va innovatsiyalarining rivojlanish sur’atlarini hisobga olgan holda chuqur o‘ylangan va yaxlit yondashuvni talab qiladi.

Rag‘batlantirish, sodda qilib aytganda, ma’lum bir vaqt ichida muayyan turdagi xatti-harakatlarni boshlash uchun quvvat beradigan iroda deyish mumkin. Rag‘batlantirish oquvchi-yoshlarni darslar davomida yanada faol bo‘lishga, harakatga undaydi. U o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishga yordam beradigan motivator sifatida ishlaydi. Mana shu quvvat ichki yoki tashqi to‘siqlarni yengib o‘tishga imkon beradi.

Aralash ta’lim jarayonida rag‘batlantirish usulini takomillashtirishning pedagogik tizimi subyektiv bo‘lgan, ammo qadriyatlarga yoki vazifani bajarishdan zavqlanishga mos keladigan harakatlar natijasi deb hisoblangan ichki motivatsiyani anglatadi. Aralash ta’lim jarayonida rag‘batlantirish usulini takomillashtirishning pedagogik tizimi tushunishning kaliti bo‘lib, bu insonning qadriyatlari yoki istaklariga bo‘lgan munosabatdir. O‘quvchilarga yoqadigan usullardan biri ularni dars davomida rag‘batlantirishdir. Bu ularning ongida moddiy mukofotdan ko‘ra yuqori o‘rin tutadi. Aralash ta’lim jarayonida rag‘batlantirish o‘quvchilarning xulq-atvor va kognitiv majburiyatlarini rivojlantirishning eng yaxshi usuli hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. (2020) O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” O‘RQ 637-sonli qonuni. [Internet manba]. URL: https://lex.uz/docs/-5013007 (Murojaat etilgan manba: 05.09.2023)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. [Internet manba]. URL: https://lex.uz/docs/-6008663?ONDATE=11.05.2022%2000 (Murojaat etilgan manba: 15.09.2023)

3. *Нагаева И.А*. Смешанное обучение в современном образовательном процессе: необходимость и возможности // Отечественная и зарубежная педагогика, 2016. – № 6 (33). – Pp. 56–67.

4. *Крылова Е.А.*Технология смешанного обучения в системе высшего образования // Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin), 2020. 1(206). – С. 86–93.

5. *Бабаходжаева Л.Г*. Талабаларнинг педагогик компетентлигини ривожлантириш жараёнида аралаш таълим моделини жорий этишнинг назарий ва амалий асослари: Педагог. фан. докт. (DSc) дисс… авторефат. Чирчиқ, 2021. – 98 б.

6. *Begbo‘tayev A.E.* “Tarmoq texnologiyalari” fanini o‘qitishni takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari. – Toshkent: «Tafakkur» nashriyoti, 2020. – 125 b.

7. *Саифуров Д.М.* Касб-ҳунар коллежлари ўқитувчилари малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш тизимида масофадан ўқитишнинг илмий-услубий асослари: Педагог. фан. номз. …дисс. авторефат. – Тошкент, 2005. – 22 б.

8. *Алламбергенова М.Х*. Информатикадан интерактив ўқув мажмуалар яратиш ва улардан таълим жараёнида фойдаланиш: Педагог. фан. номз…. дисс. авторефат. – Тошкент, 2012. – 22 б.

9. *Эшназарова М.Й.* Масофали ўқитиш орқали талабаларнинг “ҳисоблаш усуллари” курсини ўзлаштириш самарадорлигини ошириш услубиёти: Педагог. фан. номз. …дисс. авторефат. – Тошкент, 2012. – 23 б.

10. *Орешкина А.К*. Теоретические основы развития образовательного пространства системы непрерывного образования в контексте его социальных измерений // Инновационные образовательные технологии. – 2014. – № 2 (38). – С. 4–7.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-sonli farmoni [Internet manba]. URL: https://lex.uz/ru/docs/-4545884 (Murojaat etilgan manba: 05.09.2023)

12. *Мингбаева Б.У.* Zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida ta’lim samaradorligini ta’minlashda interfaol usullardan foydalanish // Материалы “Актуальные проблемы дошкольного и начального образования” межвузовская научно-практическая конференция. – Buxoro, 2019. – B. 305.

13. *Allamova S.Sh*. Aralash ta’lim modellari va imkoniyatlari // International scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022. – No 6(47). – B. 88–105. [Internet manba]. URL: https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2023/02/aralash-talim-modellari-va-imkoniyatlari-1.pdf (Murojaat etilgan manba: 05.01.2024)

PEDAGOGICAL SYSTEM OF IMPROVING THE METHOD OF INCENTIVES IN THE PROCESS OF MIXED EDUCATION

Ziyodaxon E. Azimova[1], Mavludaxon X. Jumakulova[2]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific bulletin. Series: Pedagogical Research. 2024. 2 (78). 14-20.

[1]Andijan State Pedagogical Institute Uzbekistan, Andijan, 170100, str. Do'stlik, 4. (Uzbekistan). E-mail: andupi@edu.uz

[2]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: mixed type, improvement, pedagogical system, approach, environment, education

This article is described system of improving the method of stimulation in the process of mixed clasess. The main aim of this work is clarify the pedagogical system of improvement of the method of stimulation in the process of mixed education and to use it during classes and training. In our small scientific research work, We used the methods taken from the dissertations of several researchers, including L.G.Babakhodjayeva, A.E.Begbo'tayev, D.M.Saifurov, M.Kh.Allambergenova, M.Y.Eshnazarova. Their work suggests that combining traditional face-to-face teaching with online learning components provides a flexible and dynamic approach to learning. In this context, the method of motivation refers to the various methods, rewards, and motivators used by teachers to encourage student engagement, participation, and achievement. These incentives can take many forms, including praise, rewards, recognition, gamification, personalization, and autonomy in learning includes several key elements that contribute to its effectiveness:

1. Personalization and differentiation, 2. Gamification and interactive learning, 3. Real-time feedback and recognition, 4. Collaboration and peer motivation, 5. Autonomy and self-management, 6. Usability and flexibility, 7. We can provide continuous evaluation and adjustment methods. Teachers can achieve their goals by applying the above methods during their lessons. In general, the pedagogical system of improving the method of promotion in the blended learning process is deeply thought out and integrated, taking into account the unique characteristics of blended learning, the diverse needs of students, and the developing landscape of educational technology and innovation.

The word motivation, in simple terms, is the will that gives the energy to initiate certain types of behavior within a certain period. Encouragement encourages students to be more active during lessons. It acts as a motivator to help us achieve our goals. This energy within us allows us to overcome internal or external obstacles. Sometimes we lose the motivation to keep going, so when it comes to leading with our own will, we first need to understand the other types of motivation that exist. Shortly says, Like any pedagogical approach, the system for improving incentives in mixed education should include continuous evaluation of its effectiveness. Teachers must collect student feedback, monitor their engagement and performance, and adjust motivational strategies based on the changing needs and dynamics of the learning environment.

References:

1. (2020) O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risidagi" O'RQ 637-sonli qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On Education" No. 637 of September 23, 2020]. [Online]. URL: https://lex.uz/docs/-5013007 (Date of Access: 05.09.2023)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 11, 2022 No. PF-134 "On approval of the national program for the development of public education in 2022-2026"]. [Online]. URL: https://lex.uz/docs/-6008663?ONDATE=11.05.2022%2000 (Date of Access: 15.09.2023)

2. Nagaeva, I.A. (2016) Smeshannoe obuchenie v sovremennom obrazovatel'nom processe: neobhodimost' i vozmozhnosti [Blended learning in the modern educational process: necessity and opportunities]. *Otechestvennaya i zarubezhnaya pedagogika*. No 6 (33). Pp. 56-67.

3. Krylova, E.A.(2020) Tekhnologiya smeshannogo obucheniya v sisteme vysshego obrazovaniya [Blended learning technology in higher education].*Vestnik TGPU* (TSPU Bulletin). 1 (206). Pp. 86-93.

5. Babahodzhaeva, L.G. (2021) O‘quvchilarning pedagogik kompetentligini rivozhlantirish zharayonida aralash ta»lim modelini zhorij etishning nazarij va amalij asoslari [Theoretical and practical foundations of the introduction of the mixed education model in the process of developing the pedagogical competence of students. Abstract of the dissertation for Doctor of pedagogical Sciences (DSc). Chirchiq. P. 98.

6. Begbo‘tayev, A.E. (2020) “Tarmoq texnologiyalari” fanini o‘qitishni takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari [Scientific-pedagogical foundations of improving the teaching of «Network technologies»]. Tashkent: “Tafakkur” nashriyoti. B. 45

7. Saifurov, D.M. (2005) Kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida masofadan oqitishning ilmiy-uslubiy asoslari [The scientific and methodological basis of distance education in the system of vocational college teacher training and retraining]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Pedagogical Sciences. Tashkent. P. 89

8. Алламбергенова, М.Х. (2012) Информатикадан интерактив ўқув мажмуалар яратиш ва улардан таълим жараёнида фойдаланиш [Creating interactive educational complexes from computer science and using them in the educational process]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Pedagogical Sciences. Tashkent.

9. Eshnazarova, M.Y. (2012) Masofali o‘qitish orqali o‘quvchilarning “Hisoblash usullari” kursini o‘zlashtirish samaradorligini oshirish uslubiyoti [Methods of increasing the efficiency of students’ mastery of the “Calculation methods” course through distance education]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Pedagogical Sciences. Tashkent. B. 112

10. Oreshkina, A.K. (2014) Teoreticheskie osnovy razvitiya obrazovatel’nogo prostranstva sistemy nepreryvnogo obrazovaniya v kontekste ego social’nyh izmerenij [Theoretical foundations for the development of the educational space of the lifelong education system in the context of its social dimensions]. *Innovacionnye obrazovatel’nye tekhnologii*. No 2 (38). Pp. 4-7.

11. (2019) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-sonli farmoni [“On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030”: Decree of the President of the Republic of Uzbekistan), available at:]. [Online]. URL: https://lex.uz/ru/docs/-4545884 (Date of Access: 05.09.2023)

12. Mingbaeva, B.U. (2019) Zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida ta’lim samaradorligini ta’minlashda interfaol usullardan foydalanish [Using interactive methods to ensure educational efficiency based on modern educational approaches]. In: Materialy “Aktual’nye problemy doshkol’nogo i nachal’nogo obrazovaniya” mezhvuzovskaya nauchno-prakticheskaya konferenciya [Materials “Current problems of preschool and primary education” interuniversity scientific and practical conference]. Bukhara. P. 305.

13. *Allamova S.Sh*. Aralash ta’lim modellari va imkoniyatlari // International scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022. – No 6(47). – B. 88–105. [Online]. URL: https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2023/02/aralash-talim-modellari-va-imkoniyatlari-1.pdf (Date of Access: 05.01.2024)

Mualliflar haqida ma’lumot:

AZIMOVA Ziyodaxon Ergashevna – pedagogika fanlari doktori. Andijon davlat pedagogika insituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi professori. E-mail: ziyodachon@mail.ru

JUMAKULOVA Mavludaxon Xosilovna – Andijon davlat universiteti Pedagogika kafedrasi 1- bosqich doktaranti. E-mail: mavludahonjumaqulova26@gmail.com